# QASHQADARYO VILOYATI G'UZOR TUMANIDA 2021-2023 YILLARDA AMALGA OSHIRILGAN TASHABBUSLI BUDJETLASHTIRISH JARAYONI

***Mavlonova Irodaxon***
***Samandarova Feruzaxon***
***Sayfullayeva Madina***
*Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti*
*" Moliya" fakulteti 80K-guruh talabalari*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Qashqadaryo viloyati G'uzor tumani tashabbusli budjetlashtirish amalga oshirish mexanizmini 3 yillik ko'rsatkichlar orqali tahlil qilingan.Tashabbusli budjetlashtirishda Qashqadaryo viloyatida moliyalashtirish uchun yo'naltirilgan mablag'lar,qoldiq mablag'lar ,takliflar soni ,sarflangan xarajatlar tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** Tashabbusli budjet,erkin qoldiq mablag'lari,sarflangan mablag',loyihalar nomi, moliyalashtirish uchun yo‘naltirilgan mablag'lar

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 28-avgustdagi "Byudjet ma'lmotlarining ochiqligini va byudjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta'minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi PQ-3917-sonli hamda 2021-yil 13apreldagi "Byudjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta'minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida"gi PQ-5072-sonli Qarorlariga asosan 2021-2023-yillarda jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga yo‘naltirilgan mablag‘lar ya'ni tashabbusli byudjetlashtirish natijalari bo‘yicha ma'lumotlar keltirilgan.

**Qashqadaryo viloyati** G'uzor tumani tashabbusli budjetlashtirish amalga oshirish mexanizmini 3 yillik ko'rsatkichlar orqali tahlil qildik.Bunda biz yil boshiga qoldiq , Hisobot davrida "Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi"ga o‘tkazilgan mablag‘lar, "Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi"dan tadbirlarni moliyalashtirish uchun yo‘naltirilgan, Bajarilgan ishlar uchun xisobvaraqlardan moliyalashtirilgan mablag‘va hokazolar tahlil qilindi.

Quyidagi 1-jadvalda **Qashqadaryo viloyati** G'uzor tumani tashabbusli budjetlashtirish uchun yo'naltirilgan mablag'lar qay tartibda taqsimlanishi va sarflanishini ko'rish mumkin.. 2021-yil tasabbuslarni moliyalastirish uchun 2 884

000,0 ming so'm ajratilgan, 2023-yilga kelib esa 29 462 006 ming so'm miqdorida mablag'lar ajratilgan.

**1-jadval**

**Qashqadaryo viloyati G'uzor tumani tashabbusli budjetlashtirish uchun yo'naltirilgan mablag'lar miqdori** (ming so'mda)

| T/r | Ko'rsatkich nomi | 2021-yil | 2022-yil | 2023-yil |
|---|---|---|---|---|
| 1. | Yil boshiga qoldiq | 0,0 | 1350000 | 1339000,0 |
| 2. | Hisobot davrida "Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi"ga o'tkazilgan mablag'lar | 2884000,0 | 0,0 | 29462006 |
| 3. | "Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi"dan tadbirlarni moliyalashtirish uchun yo'naltirilgan | 1534000,0 | 6532600,0 | 28952000 |
| 3.1. | Bajarilgan ishlar uchun xisobvaraqlardan moliyalashtirilgan mablag' | 1082929 | 0,0 | 0,0 |
| 3.2. | Hisobvaraqlardagi qoldiq | 432323,1 | 0,0 | 0,0 |
| 4. | "Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi"da qoldiq mablag' | 1350000,0 | 1339000,0 | 510006 |

Qashqadaryo viloyati G'uzor tumani tashabbusli budjetlashtirish uchun yo'naltirilgan mablag'larni yillar kesimida o`rganib tahlil qildik va tahlillar natijasiga ko`ra ushbu yo`naltirilgan mablag`lar 2021-yil boshiga qoldiq mavjud bo`lmagan bo`lsa, 2022- 2023-yillarda 1,3 mlrd so`m miqdorida qoldiq qolganini ko`rishimiz mumkin.

Hisobot davrida "Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi"ga 2021-yilda 2.8 mlrd so`m, 2023-yilda 29,4 mlrd so`m mablag' budjetdan o'tkazilgan bo`lib, 2021-yilga nisbatan 2023-yilda 26,6 mln. so`m ko`p mablag` ajratilgan. 2022-yil davomida "Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi"ga mablag` o`tkazilmaganligini ko`rishimiz mumkin.

"Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi"dan jamoatchilik fikri asosida tadbirlarni moliyalashtirish uchun yo'naltirilgan mablag`lar 2021-yilga nisbatan 2022-yilda ko`p miqdorda tadbirlar o`tkazilganligi sababli ularni moliyalashtirish uchun 5.0 mlrd.so`m ortiq mablag` yo`naltirilgan. 2022-yilga nisbatan 2023-yilda 22,4 mlrd.so`m ortiq mablag` ajratilganligini ko`rishimiz mumkin.

Bajarilgan ishlar uchun xisobvaraqlardan moliyalashtirilgan mablag‘ 2021-yilda 1.1 mlrd. so`mni tashkil qilgan.2022-2023-yillar davomida bajarilgan ishlar uchun xisobvaraqlardan mablag` ajratilmagan.

Qashqadaryo viloyati G’uzor tumani mahalliy budjet Hisobvarag`ida 2021-yil yakunida 4.3 mln.so`m sarflanmagan qoldiq mablag` qolgan. 2022-2023-yillarda ushbu ko`rsatkich nol qiymatni tashkil qiladi.

“Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi”ning hisob raqamidagi qoldiq miqdori 2021-2022-yillarda deyarli bir xil so`mmani tashkil qilgan bo`lsa, 2023-yildagi qoldiq 5.0 mln.so`mni tashkil etgan.

Quyidagi 2- jadvalda ko’rishimiz mukmkinki: 2021-2023 yillarda taklif etilgan loyihalar soni va ularga ajratilib sarflangan mablag’lar miqdori bilan tanishinib o’tishimiz mumkin.

**Qashqadaryo viloyati G’uzor tumanida** tashabbusli budjetlashtirish natijasida amalga oshirilgan tadbirlarda hududiy ichki yo’llarni ta’mirlashga mos ravishda 2021-yil 1 ta loyiha bo’yicha 162 159 ming so’m, 2022-yil 16 ta loyiha **11 600 000** ming so’m, 2023-yil uchun 21 ta loyiha **54 188 000** ming so’m pul mablag’lari yo’naltirilgan.

Umumta’lim maktablarini ta’mirlash va jihozlash ishlari bo’yicha 2021-yilda 1 ta loyiha bo’yicha 379 649 ming so’m, 2022-yilda 11 ta loyiha 10 564 000 ming so’m, 2023-yil uchun ham 18 ta loyiha 19 308 000 ming so’m pul mablag’lari maqsadli yo’naltirilgan.

Maktabgacha ta’lim muassasalarini ta’mirlash va jihozlash borasida olib borilgan ishlar ko’lami ham quyidagicha: 2021-2022-yillarda loyiha yo’q , 2023-yilda 2 ta loyiha 2 400 000 ming so’m yo’naltirilgan.Qolgan loyihalar sonini va yo’naltirilgan mablag’larni 2- jadvalda ko’rishimiz mumkin.

**2-jadval**

**Qashqadaryo viloyati G’uzor tumani tashabbusli budjetlashtirish natijasida amalga oshirilgan tadbirlar**

| T/r | Tadbirlar nomi | Moliyalashtirilgan takliflar soni | | | Sarflangan mablag’ (ming so‘mda) | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | 2021-yil | 2022-yil | 2023-yil | 2021-yil | 2022-yil | 2023-yil |
| **Jami** | | **5** | **41** | **61** | 1082929 | **30764000** | **54188000** |
| 1. | Hududiy ichki yo‘llar | 1 | 16 | 21 | 162159 | **11600000** | 12460000 |

| | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 2. | Umumta'lim maktablarini ta'mirlash va jihozlash | 1 | 11 | 18 | 379649 | 10564000 | 19308000 |
| 3. | Maktabgacha ta'lim muassasalarini ta'mirlash va jihozlash | 0 | 0 | 2 | 0,0 | 0 | 2400000 |
| 4. | Sog'liqni saqlash muassasalarini ta'mirlash va jihozlash | 0 | 6 | 5 | 0,0 | 3200000 | 4000000 |
| 5. | Boshqa ijtimoiy soha muassasalarini ta'mirlash va jihozlash | 0 | 0 | 0 | 0,0 | 0 | 0 |
| 6. | Ichimlik suvi ta'minotini yaxshilash | 0 | 2 | 3 | 0,0 | 2000000 | 3400000 |
| 7. | Ko'cha chiroqlarini o'rnatish tadbirlari | 3 | 2 | 1 | 541121 | 1000000 | 500000 |
| 8. | Hududlarni tartibga keltirish (obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish) | 0 | 0 | 0 | 0,0 | 0 | 0 |
| 9. | Boshqa tadbirlar | 0 | 4 | 11 | 0,0 | 2400000 | 12120000 |

Qashqadaryo viloyati G'uzor tumani tashabbusli budjetlashtirish natijasida jami moliyalashtirilgan takliflar 2021-yilda 5 taga 1,0 mlrd.so`m, 2022-yilda 41 taga 30,7 mlrd.so`m, 2023-yilda 61 taga 54,2 mlrd.so`m mablag` sarflangan bo`lib, yillar davomida o`sish ko`rsatkichlari kuzatilmoqda. Jumladan, 2021-yilda hududiy ichki yo`llarni ta`mirlash uchun 1 ta moliyalashtirilgan taklif berilgan bo`lsa ushbu ko`rsatkich 2023-yilda 21 taga o`sgan va buning natijasida 12.4 mlrd so`m mablag` sarflangan. Shuningdek, Umumta'lim maktablarini ta'mirlash va jihozlashning eng past ko`rsatkichi 2021-yilda kuzatilayotgan bo`lsa ushbu ko`rsatkich 2022-2023-yillar davomida yuqori ko`rsatkichlarni tashkil qilib jami 20,8 mlrd.so`mni tashkil qilgan. 2023-yilda 2 ta maktabgacha ta'lim muassasalarini ta'mirlash va jihozlash uchun 2.4 mlrd.so`m mablag` sarflangan. Shuningdek sog'liqni saqlash muassasalarini ta'mirlash va jihozlash uchun eng yuqori 2022-yilda 6 ta moliyalashtirilgan taklif berilgan bo`lib, 3,2 mlrd.so`m sarflangan bo`lsada 2023-yilda 5 ta moliyalashtirilgan taklifga 4,0 mlrd.so`m sarflangan. Boshqa tadbirlar uchun 2023-yilda 12,1 mlrd.so`m eng yuqori ko`rsatkichni tashkil qilmoqda.

Quyidagi 3-jadvalda **Qashqadaryo viloyati** G'uzor tumanida Fuqarolar tashabbusli jamg'armasi mablag'larining shakllanish manbalarini ko'rishimiz mumkin.

**3-jadval**

**Qashqadaryo viloyati G'uzor tumanida Fuqarolar tashabbusli jamg'armasi mablag'larining shakllanish manbalari (ming so'mda)**

<table>
<tr><th colspan="2">Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi mablag'larini shakllantirish manbalari</th><th>2021-yil</th><th>2022-yil</th><th>2023-yil</th></tr>
<tr><td colspan="2">Tuman mahalliy budjeti tasdiqlangan umumiy xarajatlarning 5 foiz qismi miqdorida ajratilgan mabag'lar</td><td></td><td>9 718 402</td><td>12 224 000</td></tr>
<tr><td colspan="2">Mahalliy budjetining yil boshiga shakllangan Erkin qoldiq mablag'lari</td><td></td><td></td><td></td></tr>
<tr><td colspan="2">Tuman mahalliy budjeti qo'shimcha manbalarning 30 fozi miqdorida ajratiladigan mablag'lar</td><td>2 451 300</td><td>4 180 000</td><td>1511000</td></tr>
<tr><td rowspan="3">Shu jumladan</td><td>Erkin qoldiq mablag'lari</td><td>432700</td><td>422 000</td><td>1959000</td></tr>
<tr><td>Daromadlarning hisobot choraklari yakunlari bo'yicha aniqlanadigan prognozdan oshirib bajarilgan qismi</td><td>11 581 500</td><td></td><td></td></tr>
<tr><td>Iqtisod qilingan mablag'lar</td><td></td><td></td><td>857 005,83</td></tr>
<tr><td>Qo'shimcha ajratilgan</td><td>2023-yil 10-apreldagi PQ-117-son qaroriga</td><td></td><td></td><td>11572000,0</td></tr>
<tr><td colspan="2">Jami ajratiladigan mablag'lar</td><td>2 451 300</td><td>15 670 402</td><td>29 462 004,9</td></tr>
</table>

**Qashqadaryo viloyati G'uzor tumanida Fuqarolar tashabbusli jamg'armasi mablag'larining shakllanish manbalari** Tuman mahalliy budjeti tasdiqlangan umumiy xarajatlarning 5 foiz qismi miqdorida ajratilgan mabag'lar 2023 yil 2022 yilga nisbatan 2,5 mln.so'mga oshganini ko'rishimiz mumkin. Tuman mahalliy budjeti qo'shimcha manbalarning 30 foiz miqdorida ajratiladigan mablag'lar 2021 yil 3 ta chorakda jami 2,4 mln.so`m mablag'ni tashkil etgan. 2022 yilda esa bu ko'rsatkich 4,1 mln.so`mga oshgan. Erkin qoldiq mablag'lari esa 2023 yilda 1,9 mln.summa qayd etilgan holda qolgan yillarga nisbatan bu ko'rsatkich keskin o'sgan. 2023 yilda Iqtisod qilingan mablag'lar 3 chorakda jami 0.8 mln.so`mni tashkil etgan. Mablag'larni shakllanish manbalarini har yilgi choraklar misolida tahlil qildik va **Qashqadaryo viloyati** G'uzor tumani tashabbusli budjetlashtirish natijasida amalga oshirilgan loyihalar tarkibini ,to'plangan ovozlar va ajratilgan mablag'lar miqdorini 4 -jadval orqali ko'rsatib berdik.

**4-jadval**

**Qashqadaryo viloyati G'uzor tumani tashabbusli budjetlashtirish natijasida amalga oshirilgan loyihalar tarkibi**

| T/r | Tadbirning qisqacha mazmuni (sohasi) | Jami to'plagan ovozlar soni | Moliyalashtirish uchun ajratilgan mablag' miqdori (mln so'mda) |
|---|---|---|---|
| **2021-yilda** | | | |
| 1. | G'uzor tuman 14-maktabga qo'shimcha o'quv bino qurish | 2182 | 400 000 |
| 2. | 4k-349 avtomobil yo'li Mustaqillik ko'chasi 8 km ko'cha chiroqlarini o'rnatish | 2096 | 294000 |
| 3. | 4n-292 ye avtomobil yo'li O'zbekiston ko'chasini 7 kmni ko'cha chiroqlarini o'rnatish | 2091 | 262500 |
| 4. | G'uzor tuman yo'llardan foydalanish UK balansida bo'lgan 4 ye 292ye avtomjbil yo'li tuman markazi O'zbekiston ko'chasining 7 km qismini hamda 4ye-349 Mustaqillik ko'chasining 6 km qismini joriy ta'mirlash | 2077 | 525000 |
| 5. | Mahalla obodligi | 327 | 52500 |
| **2022-yilda 1-mavsum bo'yicha g'olib takliflar** | | | |
| 1. | Tibbiyot birlashmasining 750 qatnovga mo'ljallangan ko'p tarmoqli markaziy poliklinika binosini ta'mirlash Xo'jaguzar MFY | 3829 | 1000000 |
| 2. | So'vlig'ar ko'chalariga yoritish chiroqlari va kameralar o'rnatish Sovlig'ar MFY | 3774 | 500000 |
| 3. | 20-sonli maktab uchun 250 o'rinli o'quv bino, oshxona va faollar zali qurish Avfonbog' MFY | 3353 | 1000000 |
| 4. | Oqtosh va Quduq qishloqlarini suv infratuzilmasi bilan ta'minlash Jarariq MFY | 3028 | 1000000 |
| 5. | G'uzor tumani Jarariq MFYning 1,5 km uzunlikdagi markaziy ko'chasiga 8 sm qalinlikdagi asphalt qoplamasi yotqizish Jarariq MFY | 2356 | 800000 |
| 6. | Mehmonobod MFY hududida joylashgan Yuqumli kasalliklar | 1962 | 400000 |

| | | | |
|---|---|---|---|
| | shifoxonasining labaratoriya binosini ta'mirlash Mehmonobod MFY | | |
| 7. | Tojik qishlog'I yangi hayot, bibixonim ko'chasi 3-6-7-8-9-10-11-12 uylar orasidagi yo'l va ariq ta'mirlatib asphalt qoplami 350 m va beton ariq 200 m yangi hayot MFY | 1866 | 500000 |
| 8. | Tibbiyot birlashmasi hududida yangi 2 ta hojatxona qurish Xo'jaguzar MFY | 1820 | 200000 |
| 9. | Buyuk karvon y'li mahallasi tuman markazida joylashgan bo'lib ichki yo'llari juda ham nosoz yaroqsiz holga kelib qolgan ayniqsa Yoshlik hamda Buyuk ipak yo'li ko'chasidan Yangi bozordan Xusan mustayev uyini orqasi tor ko'chadan o'tish juda qiyin hokimiyat tomonga chiqishga qiynalishadi mahalladoshlar 5-6 km yo'lni ta'mirlashga amaliy moddiy yordam kerak ''Buyuk Karvon yo'li'' MFY | 1316 | 550000 |
| 10. | 12-umumiy o'rta ta'limmaktabi hovlisini 220 metr devor bilan o'rash Yakkadaraxt MFY | 1274 | 200000 |
| 11. | Xalqaobod MFY Mamuriy binosini kapital ta'mirlash Xalqaobod MFY | 1070 | 300000 |
| | **2022-yilda 2-mavsum bo'yicha g'olib takliflar** | | |
| 1. | Yangihayot MFY 43-maktabga sport zali qurish | 3829 | 1200000 |
| 2. | G'uzor tumanidagi U.Uvatov nomli1-IDUM sport zal qurish | 3774 | 1200000 |
| 3. | G'uzor tumani Buston MFY da joylashgan tuman xalq ta'limi bo'limiga qarashli 16-maktabni ta'minlash | 3353 | 1200000 |
| 4. | Guzor tumani Gulshan MFY ESKIBOG' mahallasidagi 3-sonli maktab va Jarariq MFY ortasidagi 1,5 km ichki yo'lni 4,5 metr eni va 6 sm qalinlikdagi asfalt qoplamasi yotqizish | 3028 | 1000000 |
| 5. | 75 maktab isitish tizimini ta'mirlash | 2361 | 964000 |
| 6. | Tojik qishloq Yangi Hayot MFY ichki ko'chasini asfalt qilish 3 km | 2356 | 1200000 |

| | | | |
|---|---|---|---|
| 7. | Yonqishloq MFYga qarashli ko'chani asfalt qilish | 2010 | 1100000 |
| 8. | Jarariq MFYning jami 1700 m yollarini aspfalt qilish | 1962 | 1200000 |
| 9. | G'uzor tumani ''Guliston''MFY hududidagi elektr energiyasi qoniqarsiz bo'lgani sabab ,yangi transformator o'rnatishva yangi beton ustunlar o'rnatish | 1866 | 900000 |
| **2023-yilda 1-mavsum bo'yicha g'olib takliflar** | | | |
| 1. | Ichki yo'llar qurish uchun 12000 metr yo'l | 7377 | 1200000 |
| 2. | Qashqadaryo viloyati G'uzor tuman Yangi hayot MFY da joylashgan tibbiyot punktini ahvoli ni ta'mirlash | 7104 | 1200000 |
| 3. | Yangi hayot MFY Magnit qishloh'ini okova suv bilan ta'minlash paletelin turba orqali | 6779 | 1200000 |
| 4. | Toychi Kaxxorov do'konini oldidan Dusmurodov Feruzning uyini oldigacha asphalt qilish 3 km | 6684 | 1200000 |
| 5. | G'uzor tumani Jarariq mahallasining 2650 metr uzunlikdagi ichki yo'llarini 4,5 enlikdagi asfal qoplamasini yotqizish | 6636 | 1200000 |
| 6. | G'uzor tumani Jarariq mahallasida joylashgan 50 umumta'lim maktabini ta'mirlash tadbiri | 6262 | 1200000 |
| 7. | 26 sonli maktabga sport zal qurish | 5687 | 1200000 |
| 8. | G'uzor tumani Tengdosh MFY 9-umumiy o'rta ta'lim maktabiga qo'shimcha 2 ta sinf xonasi qurish | 5269 | 1200000 |
| 9. | 6 km piyodalar yo'lakchasini barpo etish | 5256 | 1200000 |
| 10. | 45-sonli maktab stadioniga sun'iy maydon qurib berish | 4279 | 1200000 |
| 11. | 12-maktab uchun faollar zali qurish | 3436 | 1000000 |
| 12. | Tortsari va Siyroq qishloqlarini bog'lovchi 3,2 km yo'lni to'liq asphalt qilish | 3151 | 1200000 |
| 13. | 1-sonli maktabni moddiy texnik bazasi uchun jihozlar olish:Faollar zali uchun monitor va kondisioner,interaktiv | 2654 | 1200000 |

| | | | |
|---|---|---|---|
| | doska,kompyuter,printe o;quvchilar partasi va stoli ,shkaf,doska,kimyo va biologiya labaratoriya jihozlari,ko'rgazmali jihozlar | | |
| 14. | G'uzor tumani Zarbdor mahallasining hududidagi 4 km piyodalar yo'lagi | 2450 | 1200000 |
| 15. | Sovlig'or qishlog'ini 6 km yonimizdan o'tib ketayotgan Yakkabog'-Qarshi magistral toza ichimlik suvi quvuridan tortib kelib aholini toza ichimlik suvi bilan ta'minlash | 2282 | 1200000 |
| 16. | Yargunchi qishlog'ida aholi tamorqalarini nasoslar o'rnatib aholi tomorqalaini sug'orish | 2025 | 1200000 |
| 17. | G'uzor tumani 70-umumiy o'rta ta'lim maktabini ta'mirlash | 2006 | 972000 |
| | **2023-yilda 2-mavsum bo'yicha g'olib takliflar** | | |
| 1. | Mevazor MFY ga Chugurtma MFYdan Mirzayev Ismoilni uyini oldidan Raximov eshpo'lat boboni uyigacha o'tib boorish yo'liga 3 km asphalt qoplamasi yotqizish | 11127 | 1200000 |
| 2. | Jarariq mahallasining ichki yo'llarini,hamda Gulshan MFY,eskibog' MFY,Jarariq MFYdagi bir biriga tutashgan yollarni asfallashtirish .Jami 4000 metr | 9613 | 1320000 |
| 3. | Eskibog mahallasida joylashgan Bog'bon ,Iqbol,Tokpoya ko;chalariga 3500 metr asphalt yoqizish | 8040 | 1320000 |
| 4. | Chaqar mahallasidagi yo'llarni asfaltlashtirish ,Karvon marketni oldidan ko'rikka bo'lgan qismi va ichki yo'llarga standart bo'yicha asphalt qoplamasi yotqizish | 8004 | 1320000 |
| 5. | Chaqar MFY ichki yo'llarini 3 km uzunlikda 4,5 m enlikda asphalt qoplamasi bilan yotqizish | 7371 | 1320000 |
| 6. | Oyni etak bilan yopib bo'lmaydi degan naqil bord ono xalqimizda animal sovuqdan qishlog'imiz aholisi juda qiynaldi shu sababdan sherali AGRSdan deametri | 6861 | 1320000 |

| | | | |
|---|---|---|---|
| | 114 talik X 7 km temir turba o'tkazish kerak tabiiy gaz uchun | | |
| 7. | Gulbog' ko'chasini uzunligi 2000 metr,eni 5 metr,qalinligi 6 sm bo'lgan asphalt qoplamasini yotqizish | 6140 | 1200000 |

**Qashqadaryo viloyati** G'uzor tumani tashabbusli budjetlashtirish natijasida 2021-yil amalga oshirilgan loyihalar tarkibi ko'rib chiqildi.2021-yil jami to'plangan ovozlar 8773 tani tashkil etgan.Bunda moliyalashtirish uchun ajratilgan mablag' miqdori 1534,0 mln so'mni tashkil etdi..2021-yil davomida jami to`plangan ovozlar sonining eng past ko`rsatkichi 327 ta mahalla obodligi loyihasi uchun moliyalashtirilgan mablag`lar 0,5 mln. so`m tashkil etgan. Ushbu yilda eng ko`p to`plagan ovozlar soni 2182 ta G`uzor tumani 14-maktabga qo`shimcha o`quv bino qo`shish loyihasini amalga oshirish uchun 4,4 mln. so`m mablag` ajratilgan.

2022-yil tashabbusli budjetlashtirish natijasi 2021-yilga qaraganda keskin loyihalar tarkibi soni ortgan.2022-yil jami to'plangan ovozlar soni 23782 mingtadan ortgan,sarflangan mablag'lar esa 7500,0 mln.so'mdan ortiq mablag' sarflangan. 2022-yil davomida jami to`plangan ovozlar sonining eng past ko`rsatkichi 1070 ta Xalqaobod MFY Mamuriy binosini kapital ta'mirlash loyihasi uchun moliyalashtirilgan mablag`lar 3.0 mln. so`m tashkil etgan. Ushbu yilda eng ko`p to`plagan ovozlar soni 3829 ta Xo'jaguzar MFY hududida joylashgan Tibbiyot birlashmasining 750 qatnovga mo'ljallangan ko'p tarmoqli markaziy poliklinika binosini ta'mirlash loyihasini amalga oshirish uchun 1,0 mlrd. So`m mablag` ajratilgan.

2023-yil tashabbusli budjetlashtirishda jami 24 ta loyiha yutib chiqqan.Jami to'plangan ovozlar soni 62 729 859 tani tashkil etdi, sarflangan mablag'lar esa 23 932 ,0 mln so'mni tashkil etdi.2023-yil davomida jami to`plangan ovozlar sonining eng past ko`rsatkichi 2006 ta G'uzor tumani 70-umumiy o'rta ta'lim maktabini ta'mirlash loyihasi uchun moliyalashtirilgan mablag`lar 9,0 mln. so`m tashkil etgan. Ushbu yilda eng ko`p to`plagan ovozlar soni 11107 ta Mevazor MFY ga Chugurtma MFYdan Mirzayev Ismoilni uyini oldidan Raximov Eshpo'lat boboni uyigacha o'tib borish yo'liga 3 km aspalt qoplamasi yotqizish loyihasini amalga oshirish uchun 1,2 mlrd. so`m mablag` ajratilgan.

3 yillik tahlildan ko'rinib turibdiki ,yildan yilga loyihalar tarkibi,ovozlar soni,moliyalashtirish uchun ajratilgan mablag'lar miqdorini ortganini ko'rishimiz mumkin.Demak ,2022-yilgi tashabbusli budjet 2021 -yilga qaraganda jami

to'plangan ovozlar soni 17 500 ta ovoz kop' bo'lgan,2023-yil esa 2021-yilga qaraganda 8 mln tadan ortiq ovoz to'plangan .Bundan xulosa qilishimiz mumkunki yildan yilga davlatimiz tashabbusli budjetlashtirishga katta e'tibor bermoqda va aholimiz farovon hayot kechirishi uchun kerakli imkoniyatlarni yaratmoqda.

Xulosa qilib aytganda, Tashabbusli byudjetlashtirish fuqarolarning takliflarini hisobga olgan holda turli ijtimoiy-iqtisodiy muammolarini hal qilish uchun mahalliy byudjet mablag'larining bir qismini taqsimlash va bu mablag'larni sarflash yo'nalishlarini aniqlash bo'yicha ularning bevosita ishtirokida qarorlarni qabul qilishga xizmat qilmoqda.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Вахобов АВ, Маликов ТС. Молия. Дарслик/Тошкент Молия институти. Тошкент:"Шарқ. 2010;804.
2. Malikov, T., and Haydarov NH. Byudjet. "O'quv qo 'llanma." Toshkent:"Iqtisod-moliya 84 (2008).
3. TS Malikov, O Olimjonov. Moliya. - O 'quv qo 'llanma. Toshkent: Iqtisod-moliya, 2018
4. Malikov T, Haydarov N. Budjet daromadlari va xarajatlari. O'quv qo 'llanma, Toshkent:"IQTISOD-MOLIYA. 2007.
5. Маликов ТС. Ҳайдаров НҲ "Молия: умумдавлат молияси". Ўқув қўлланма. 2009.
6. Malikov TS. Byudjet-soliq siyosati. T.:"Iqtisod-moliya. 2019.
7. Malikov, T. S., & Olimjonov, O. O. (2019). Moliya: Darslik.
8. Malikov T, Haydarov N. Budjet: tizimi, tuzilmasi, jarayoni. O'quv qo'llanma, Toshkent "IQTISOD-MOLIYA. 2008.
9. Ўроқов У. Бюджет маблағларидан самарали фойдаланишни таъминлаш йўллари. Т. 2017
10. У Ўроқов. Маҳаллий бюджетлар мустақиллигини оширишнинг устувор йўналишлари- Science and Education, 2022
11. У Ўроқов, Д Ускенбаева. Ўзбекистонда ташаббусли бюджетни жорий этишнинг ташкилий-ҳуқуқий асослари - Science and Education, 2022
12. Ўроқов У, Иргашев И, Ғайбуллаев О. Фуқаролар иштирокидаги маҳаллий бюджет. 2022
13. UY O'roqov, JA Yomg'Irov. Mahalliy byudjetlar barqarorligini ta'minlash masalalari - Central Asian Research Journal for Interdisciplinary …, 2022

14. Ўроқов УЮ. Маҳаллий бюджетлар шаффофлиги ва очиқлигини таъминлашнинг устувор йўналишлари. Бизнес-Эксперт журнали. 2020;4.
15. Ўроқов У. Ғайбуллаев О. Ўзбекистон Республикасида бюджет тизими ва жараёни: ўқув қўлланма. Тошкент: Baktria press. 2016.
16. Уроков У. Махаллий бюджетлар мустакиллигини оширишга оид назарий карашлар. Республика илмий-амалий конференция. ТМИ 2020.
17. Ўроқов У. Маҳаллий бюджетлар молиявий барқарорлигини белгиловчи кўрсаткичлар. 2020
18. Ўроқов У. Маҳаллий бюджетлар даромадларини шакллантиришнинг самарали йўллари. 2017
19. Ўроқов У. Маҳаллий бюджетлар даромад базасини кенгайтириш масалалари. Республика ўқув юртлараро конференция тўплами. ТМИ-2009 йил (Vol. 18).
20. Ўроқов У. Маҳаллий бюджетлар молиявий мустақилигини оширишнинг замонавий муаммолари. Халқаро илмий-амалий анжуман материаллари тўплами. ТМИ 2022 йил.
21. У Ўроқов.Маҳаллий бюджетлар молиявий мустақиллигини оширишнинг ҳуқуқий асослари.- Science and Education, 2023
22. G‘aybullayev O, O‘roqov U. O‘zbekiston Respublikasida budjet tizimi va jarayoni. O‘quv qo ‘llanma. T.: Baktriapress. 2016;168.
23. Xaydarov N. Soliqlar va soliqqa tortish masalalari. O'quv qo'llanma. Toshkent: Akademiya. 2007.
24. Хайдаров НХ. Маҳаллий бюджетлар: муаммо ва инновацион ечимлар. Ўзбекистон статистика ахборотномаси” илмий электрон журнали. 2020.
25. Хайдаров Н. Доходы местных бюджетов и пути их укрепления.“Молия” илмий журнали. 2022.
26. Хайдаров Н. Маҳаллий бюджетларнинг даромад манбалари. халқаро илмий-амалий конференция 2022.
27. Хайдаров Н. Маҳаллий бюджетлар даромадини барқарорлаштириш йўллари. халқаро илмий-амалий конференция мақолалар тўплами (Vol. 2022).
28. Икрамжон Машарипов. Ўзини-ўзи бошқариш органлари-фуқаролик асосий меъзони. Общество и инновации, 2022